

**AUTIZM SINDROMLI BOLALARNI NUTQ NUQSONLARINI BARTARAF
ETISHDA INTERFAOL O'YINLAR**

Ismoilova Maftuna Akramjon qizi

*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Namangan filiali 1-bosqich magistranti, Mahsus
pedagogika*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada autizm sindromli bolalar, ulardagi eng mashhur stereotiplari, psixologik jihatdan taraqqiy etishi hamda ularni maxsus terapiyalar yordamida kamchiliklarini bartaraf etish borasida keltirib o'tiladi. Autizmning asosiy belgisi reallikni qabul qilishning buzilishi. Autizmga chalingan bola tashqi olam bilan aloqani uzadi. Va uni hayotga qaytarish esa psixolog, psixiatr, defektolog kabi mutaxassislarning vazifasidir.*

Kalit so'zlar: *Autizm, stereotip, sindrom, kasallik, yolg'izlik, exolaliya, psixolog, defektolog metod, terapiya, korreksiya.*

Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib, qanday insonbo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hech qachon unutmashimiz kerak. Atrofimizda real voqeylik bilan bog'liq bo'lmagan, yonidagilar bilan muloqot qilishni istamaydigan, yolg'izlikni yoqtiradigan, fikrlashi boshqalarga o'xshamaydigan insonlarga ko'zimiz tushgan. Biz bunday insonlarga nisbatan "sal g'alatiroq" degan iborani qo'llaganmiz. Aslida esa bunday bolalarga tibbiyotdan qaraganda "autizm" deb nom berilgan. Autizm (grekcha "autos" – "o'zim" degan so'z) bu ruhiyatning o'ziga xos holatlari bo'lib, bemor tashqi olam, atrofdagilar bilan muloqot qilishni istamaydi. Ular yolg'izlikni yoqtiradilar. Ularda exolaliya (ya'ni bir xil xatti harakatlar va so'zlarni takrorlashi) kuzatiladi. Autizm termini birinchi bo'lib 1912-yilda E.Bleyer tomonida fanga kiritilgan. Ularning xatti-harakatlari real voqeylik bilan bog'liq emas. Bemorlarning harakatlarida hissiy kechinmalar asosiy o'rin tutadi. Bu sindrom qiz bolalarga nisbatan o'g'il bolalarda ko'proq uchraydi. Kasallikning ilk belgilari 3 yoshgacha kuzatiladi. Ba'zan klinik belgilari barvaqt aniqlanishi mumkin. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, qariyb 10 yil ichida autizmdan qiynalayotgan bolalar soni 10 barovariga ko'paygan. Achinarlisi bunday holat kelgusida ham davom etishi mumkin. Autizm sindromi kelib chiqishi sabablar haligacha aniqlanmagan. Faqatgina ona qornida noto'g'ri rivojlanib qolgan degan fikrlar mavjud. Psixiatrlar bolada autizm borligini darrov aniqlay olmaydilar. Bunga sabab, autizm alomatlari normal rivojlanayotgan bolada ham kuzatilishi sabab bo'ladi. Shu bois, tashxis ko'pincha kechikib qo'yiladi. Amaliyotda rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarga, ayniqsa autizm bilan kasallangan bolalar uchun mo'ljallangan korreksion metodikalar ko'p emas. "Alohida yordamga muhtoj" bolaga nisbatan birlamchi tibbiy va psixologik yondashuvdan, shuningdek, pedagogik uslublardan farqlanuvchi asosiy metodika va

texnologiyalar mavjud. Bular –TEACCH, ABA, Son-Rise, Predmetoterapiya, Sensor integrtsiya, Peks terapiya, Flour time terapiya, Ot terapiya, Delfin terapiya kabi metod va texnologiyalar mavjud.

Autistik bolani hissiy tarbiyalashning tuzatish ishlari quyidagicha amalga oshiriladi:

- Turli xil o‘yinlar;
- Ijobiy hissiy fonga ega bo‘lgan illustratsion materialdan foydalanish;
- Oilaviy albom fotosuratlarini ko‘rish;
- Bolalar uchun maxsus television dasturlarini birgalikda ko‘rish;
- Har xil hissiyotlarning yozuvlarini (audio) tinglash;
- Oyna oldida shaxsiy yuz ifodalarini tekshirish;
- Har xil intonatsiyali hayvonlarga taqlid qilish qobiliyati.

Bu metodikalar albatta bolani hayotga jalb qilish uchun qo‘llaniladi. Autizm bola asosan oila a‘zolaridan onasiga yaqin bo‘lgani uchun mutaxassis yonida ona va bola birga bo‘lsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Autizmga chalingan har bir bolani qanday bo‘lsa, shunday qabul qilish kerak. Ba‘zi autist bolalar umuman suhbatlasha olmaydi yoki ularning nutq boyligi chegaralangan bo‘ladi. Lekin ular ham, odatda, boshqa odamlarning gaplarini tushunishadi. Bunday insonlar boshqalarga imo-ishora nutqi yordamida fikrlarini bildirishi mumkin. Autizm bolalar asosan piktogramma metodi orqali muloqot qilishadi. O‘yin tarzida olib borilgan muloqot albatta foydali va bolani jalb qila oladi. Autizm bolalarning stereotiplari haqida so‘z ochadigan bo‘lsam, avval stereotip nimaligini bilib olishimiz kerak. Stereotip –autizmga chalingan insonlarning eng mashhur belgilari (odatlari)desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Autist insonlarning eng mashhur stereotiplari bu bir qo‘lini yarim bukib, tepa -pastga o‘ynatishi. Quloqlarini qo‘llari yordamida berkitib olishi. Odatda bolalar shovqindan quloqlarini berkitishadi. Lekin autistlar esa uxlayotganlarida ham bu odatlarini tashlamasliklari mumkin. Stereotip sog‘lom insonlarda ham kuzatilishi mumkin. Sog‘lom insonlardagi eng mashhur stereotiplari bu –barmoqlari yordamida sochlarini o‘ynashi yoki partada o‘tirganda oyoqlarini o‘ynatishini misol keltirish mumkin. Biz odatda stereotiplarini yo‘qota olmaymiz, shunchaki bu odatdani kamaytirishimiz mumkin. Lekin bir narsani bilib qo‘yishimiz kerak. Bir stereotipni yo‘q qilamiz deb boshqa stereotibni orttirib olishimiz mumkin.

Autizm sindromi bilan og‘rigan bolalarda nutq muammolari keng tarqalgan. Bu bolalar uchun interfaol o‘yinlar, ular bilan ishlashda samarali usul bo‘lishi mumkin. Interfaol o‘yinlar, bolalar uchun ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, o‘zlarini ifoda etish, va nutqni yaxshilashda yordam beradi. O‘yinlarning afzalliklari:

1. Ijtimoiy Muloqatni Rag‘batlantirish: Interfaol o‘yinlar bolalar o‘rtasidagi muloqotni kuchaytiradi. Ular birga o‘yin o‘ynashganda, muammolarni hal qilish va fikr almashish imkoniyatiga ega bo‘ladilar, bu esa ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

2. Motivatsiya: O‘yin davomida bolalar qiziqishni davom ettirishadi. O‘yin jarayonida o‘zlarini ifoda etishga boshlaydilar va natijada nutqlarini yaxshilaydilar.

3. Qobiliyatlarni O'rganish: Interfaol o'yinlar bolalarga o'z qobiliyatlarini sinab ko'rish va yangi narsalarni o'rganishni ta'minlaydi. Bu jarayonda nutq va til qobiliyatlari tabiiy ravishda rivojlanadi.

Interfaol O'yinlar Turlari

1. Rol o'ynash o'yinlari: Bu o'yinlar yordamida bolalar o'zlarini turli personajlar sifatida ko'rsatishi va o'zaro muloqot qilishni o'rganishlari mumkin.

2. Mashq O'yinlari: Nutqni rivojlantirish uchun mo'ljallangan o'yinlar. Misol uchun, "so'z topish" o'yinlari, u erda bolalar to'g'ri so'zlarni topishadi yoki berilgan mavzu bo'yicha so'zlar yaratishadi.

3. Interaktiv Qiziqarli O'yinlar: Kompyuter yoki mobil qurilmalar orqali o'ynaladigan o'yinlar ham foydali bo'lishi mumkin. Ular nutq va til ko'nikmalarini rivojlantirishda qiziqish uyg'otadi.

Autizm sindromli bolalarning nutq nuqsonlarini bartaraf etish jarayonida interfaol o'yinlarning ahamiyati katta. Bu o'yinlar bolalarga qiziqarli va ijodiy muhitda rivojlanishga yordam beradi. Ular ijtimoiy ko'nikmalarni, nutqni va tilni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tmoqchimanki, autizm buzilishlari atrof-muhit bilan bo'lgan munosabat kamligidan yuzaga keladi. Bolaning yaqin odamlar bilan shuningdek, uning atrof-muhit g'oyalarini cheklash, undagi mavjud bilim va ko'nikmalarni erkin qo'llashiga to'sqinlik qiladi. Autizmga chalingan har qanday bolani ta'limga jalb qilish kerak. Ba'zida ota-onalar farzandlarining nosog'lom ekanidan uyaladilar. Farzandlarini ommaga, jamoatgaolib chiqmasligi natijasida qoloq bo'lib qoladi. Bunday bolalar maxsus muassasalarda ta'lim oladilar. Bolalar bilan birgalikda jamoaga qo'shilsa albatta foydali. Psixologik jihatdan to'g'ri rivojlanishiga yordam beradi. Agar ta'lim va tarbiya to'g'ri olib borilsa autist bolalardan yetuk shaxslar yetishib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. I.A. Karimov "Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch" –2008-y.
2. Nurmatova D.G. "Autist bolalarni ijtimoiy-psixologik moslashtirish tizimini takomillashtirishning metodologik asoslari". –2020. –B. 46-52.
3. Axrorova S. 2020. "Autizmli bolalarga tashxis qo'yish usullari" arxiv https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6487
4. Axrorova S. 2020. "Hozirgi zamon autizmli bolalarning ta'lim tarbiya muammosi" Arxiv https://science.iedu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6487